



**IQLIM O'ZGARISHI VA TABIIY OFATLAR KELAJAKDA
MARKAZIY OSIYONING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI**

XOLMURATOV BEKZOD DILSHOD O'G'LICH

bekzodxolmuratov94@gmail.com

Hozirgi kunda hech birimizga sir emasku ommaviy axborot vositalari orqali dunyoning istalgan burchagidagi yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyati mavjud. Axborot vositalari ham eng avvalo e'tibor qaratadigan holatlar bu albatta tasodifiy va kutilmagan holda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishlaridur. Dunyoning qaysidur burchagida suv toshqini yuzaga kelsa, yana bir boshqa tomonida o'rmon yong'inlari, boshqasida esa yer silkinishlari ya'ni zilzilani sodir bo'lmoqda. Yuqorida aytib o'tganlarimiz ekologik kutilmagan ofatlar xisoblanadi. Bunday kutilmagan ofatlarning iqtisodiyotga ta'siri ham sezilarli bo'ladi. Bunday holatlarga oldindan tayyorgarlik ko'rishni deyarli imkoni yo'q va ilojsiz bo'lib turibdi hopzirgi kunda. Iqlimdagagi bunday o'zgarishlar bizning mintaqada ham sodir bo'lib turmoqda ayniqsa oxirgi vaqtarda tez-tez bo'lmoqda. Jhon banki yaqinda o'zining kuzatuvlaridan kelib chiqib statistik ma'lumot tarqatdi. Bu ma'lumotda bizning iqtisodiyotgan qanchalar zarar yetkazish ehtimollarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Markaziy Osiyodagi tabiiy ofatlar, ayniqsa zilzilalar va suv toshqinlari har yili mintaqaga milliardlab dollar zarar keltirishi mumkin. Bu haqda Ostona shahrida Jhon banki va Ostona xalqaro moliya markazi tomonidan tashkil etilgan "Tabiiy ofatlar xavfini moliyalashtirish va sug'urtlash" bo'yicha mintaqaviy konferensiyada so'z yurutildi.

Zilzilalarning o'zi 2 milliard dollargacha zarar yetkazadi

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, faqatgina zilzilalar mintaqada yiliga 2 milliard dollargacha zarar keltirishi mumkin, bu har yili 4 millionga yaqin odamga ta'sir qiladi. Shuningdek, iqlim o'zgarishi sababli suv toshqinlari Markaziy



Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti uchun asosiy xavf omillaridan biriga aylanib bormoqda, ekstremal hodisalardan ko‘rilgan yo‘qotishlar yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 6 foizigacha yetadi.

Mintaqa mamlakatlarida yirik ofatlardan qutulish uchun yetarli mablag‘ yo‘q

Bunday moliyaviy ta’sirlarni yumshatish va o‘z vaqtida tiklanishni ta’minlash uchun tabiiy ofatlar xavfini moliyalashtirishning samarali strategiyalari zarur.

Jahon banki eksperti Indu Jon-Abraham mintaqa mamlakatlarida yirik ofatlardan qutulish uchun yetarli mablag‘ yo‘qligini ta’kidladi. Agar yirik hodisalar ro‘y bersa, Tojikiston va O‘zbekiston mos ravishda 1,5 milliard va 15 milliard dollargacha moliyaviy taqchillikka duch kelishi mumkin, bu esa ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani ta’mirlashga sarflanadigan xarajatlarga ta’sir qiladi.

Iqlim o‘zgarishidan ehtimoliy yo‘qotishlar

Xususan, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) mintaqa davlatlarining iqlim o‘zgarishidan ehtimoliy yo‘qotishlarini hisoblab chiqdi, bu 2100-yilga borib YaIMning 6,8 foizini tashkil qilishi mumkin.

Modellashtirish natijalariga ko‘ra, OTB mutaxassislari Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari iqlimining umumiy yo‘qotishlarini hisoblab chiqdilar. Issiqxona gazlarining yuqori emissiyasi ssenariysiga ko‘ra, 2070-yilga borib yo‘qotishlar YaIMning 17 foizini tashkil qilishi mumkin. Yana 30 yil ichida yo‘qotishlar YaIMning 41 foizigacha yetishi mumkin.

OTB modeliga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlari iqlim o‘zgarishidan kamroq zarar ko‘radi. Agar issiqxona gazlari emissiyasi yuqoriligidcha qolsa, yo‘qotishlar 2035-yilga borib YaIMning 0,7 foizini, 2050-yilga borib yalpi ichki mahsulotning 1,7 foizini, 2070-yilga borib yalpi ichki mahsulotning 3,8 foizini tashkil qiladi.

Energiya xarajatlariga eng ko‘p ta’sir qiluvchi omil qaysi?

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda o‘rtacha havo harorati jahondagi o‘rtacha haroratdan tezroq ko‘tariladi. 2070-yilga borib u 8 darajaga ko‘tariladi. Harorati



+35 darajadan yuqori bo‘lgan “issiqlik to‘lqinlari” deyarli ikki barobar tez-tez sodir bo‘ladi. Bu energiya xarajatlariga va samaradorlikka salbiy ta’sir qiladi.

2023—2030-yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha yillik xarajatlar aholi jon boshiga 83,6 dollarni tashkil etadi.

Yuqorida keltirib o’tilgan ma’lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki, sug’urta kompaniyalarini moliyaviy jihatdan qiyin ahvolga solib qo’yishini tahmin qilish mumkin bo’ladi. Buning uchun sug’urta kompaniyalari ham o’zlarining sug’urta badallari va moddiy imkoniyatlarini yetarlicha baholab olishlari zarur hamda statistik ma’lumotlardan doimiy ravishda foydalanishlari o’zlari uchun manfaatli xisoblanadi.